

SOMONIYLAR SULOLASI HUKMRONLIGI DAVRIDA TARIX FANI HOLATI: ASOSIY YO‘NALISHLAR, ASARLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Mamadaliyev Husniddin

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya. Tariximizni o‘rganishda yozma manbalar muhim o‘rin tutadi. Somoniylar sulolasi davri tarixi (819 – 999-yillar) asosan boshqa hududlarda yozilgan ammo sulola tarixi bo‘yicha ma‘lumot beradigan ishlar asosida o‘rganilgan. Maqolada bevosita sulola hukmronlik qilgan davr va hududlarda yozilgan tarixiy asarlar, ularning yo‘nalishi va ularda ko‘tarilgan masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yozma manbalar, somoniylar sulolasi, umumiy tarix, biografiya, mintaqaviy tarix, tarix falsafasi, mualliflar, vazir.

ИСТОРИЧЕСКАЯ НАУКА ВО ЭПОХУ ПРАВЛЕНИЯ САМАНИДСКОЙ ДИНАСТИИ: ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ, ТРУДЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

Мамадалиев Хусниддин

Старший научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана, кандидат исторических наук

Аннотация. Письменные источники играют важную роль в изучении истории. История династии саманидов изучалась преимущественно на основе сочинений, написанных в других регионах, но дающих важные сведения по истории династии. В статье рассматриваются исторические труды, написанные в период правления династии и в регионах непосредственно подчиняющихся ей, а также их направления и поднятые в них идеи.

Ключевые слова: письменные источники, династия саманидов, всеобщая история, биография, региональная история, философия истории, авторы, визирь.

HISTORY WRITING DURING THE RULE OF THE SAMANID DYNASTY: MAIN DIRECTIONS, WORKS AND THEIR IMPORTANCE

Mamadaliyev Husniddin

Senior researcher at the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan, candidate of historical sciences

Annotation. Written sources play an important role in the study of history. The history of the Samanid dynasty has been studied primarily on the basis of works written in other regions, but which contain important data on the history of the dynasty. The article examines historical works written during the reign of the dynasty and in the regions directly subordinate to it, as well as their directions and ideas.

Key words: written sources, Samanid dynasty, general history, biography, regional history, philosophy of history, authors, vizier.

Kirish. Arab tilidagi yozma manbalar Birinchi Renessans davri tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Albatta, Birinchi Renessans davrida turli fan yo‘nalishlari rivojlangan. Shunday sohalardan biri bu tarix fani hisoblanadi. Tarix fanining o‘sha vaqtdagi holatini biz bugunga qadar saqlanib qolgan yozma manbalar, ulardagi asarlari etib kelmagan mualliflar va ularning ijodi to‘g‘risidagi fikrlar orqali o‘rganishimiz mumkin. Albatta, tarix ilmining durdonalari hisoblanmish Muhammad ibn Jarir Tabariyning (829 – 923-yillar) “Tarix ar-rusul va-l-muluk” (Payg‘ambarlar va podsholar tarixi), Abul Abbos Ahmad Ya‘qubiy (taxminan 897-yilda o‘lgan) va Ahmad ibn A’sam Kufiy (926-yilda o‘lgan) kabi mualliflarning “Futuh”, Abul Hasan Ali Mas‘udiyning (896 – 957-yillar) “Muruj az-zahb” (Oltin yaylovlar), Ibn Javziyning (1116 – 1201-yillar) “Al-muntazam” (Ketma-ketlik) asari, Ibn Asirning (1160 – 1233-yillar) “Al-komil fi-t-tarix” (Mukammal tarix) va boshqa shu kabi tarixiy manbalar ma‘lum ma‘noda bizning o‘lkamiz, ya‘ni Turon hududi o‘tmishini ham qamrab olgan. Boshqa hududlarda yozilgan bu ishlarda o‘sha davrda manbalarda Movarounnahr, Xorazm, Turkiston degan nomlar bilan tasvirlangan yurtimiz tarixiga alohida o‘rin ajratilgan. Ammo bizning Turon hududida qanday tarixiy asarlar yozilgan va ularda asosan qanday masalalar yoritilgan, hukmron sulola bo‘lmish somoniylar (819 – 999-yillar) tomonidan tarix ilmiga qanday homiylik qilingan, unga jamiyat va davlat qanday vazifalarni yuklaganligi

masalasi bugungi kunda qiziq va kam o'rganilgan mavzulardan hisoblanadi. Maqolada, aynan IX – X asrlarda somoniylar sulolasi hukmronligi davrida tarix ilmi holati ko'rib chiqiladi. Avvalo, mazkur mavzuning dolzarbligi tarixchi olimlarning faoliyati, yashagan davri va ularning jamiyatdagi o'rniga doir ma'lumotlarni aniqlash va muayyan xulosalarga kelish zaruriyati bilan belgilanadi. Ikkinchidan, yaratilgan asarlarning nomi, ularning yo'nalishlari va ularda ilgari surilgan g'oyalar orqali o'sha davr mintaqa tarix ilmidagi ustun yo'nalishlar, qarashlar va muammolar haqida muayyan xulosalarga kelish mumkin. Uchinchidan esa, sulola hukmronlik qilgan qariyb ikki asr davomida yaratilgan ishlarni tahlil qilish orqali tarix ilmining rivojlanish dinamikasi haqida xulosalar olish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid alohida ish bajarilmagan bo'lsa-da, somoniylar sulolasi (818 – 999-yillar) tarixiga bag'ishlangan ayrim ishlarda mavzuga doir kichik bo'limchalar ajratilgan [9]. Ammo bu qismda tarix ilmiga oid manbalar ichiga boshqa fan yo'nalishlari xususan, aniq fanlar yo'nalishidagi ishlar aralashtirib yuborilgan. Ayrim ishlarda esa boshqa jarayonlarni yoritish asnosida manbalar va ularning mualliflarining tarix ilmiga qo'shgan hissasi va foydalangan manbalari haqida fikrlar ilgari surilgan [7]. Yana manbashunoslik nazariy masalalariga doir ishlarda IX – X asrlarda Turonda yaratilgan tarix faniga bag'ishlangan ishlarga alohida to'xtalangan [5. 6].

Tadqiqotlar metodologiyasi. Mazkur maqola mavzusini o'rganishda birinchi navbatda tarix ilmi manbashunoslik yo'nalishining manbalarni aniqlash, tavsiflash va tahlil qilish usullaridan foydalanilgan. Somoniylar sulolasi davrida (819 – 999-yillar) tarixiy asarlar asosan arab va fors tillarida yozilgan. Bu davrda islom dinining katta ta'siri o'z navbatida tarixni yoritishga ham ta'sir ko'rsatgan. Shunday bo'lsa-da, somoniylar sulolasining hokimiyatining mustahkamlanib borishi natijasida X asr ikkinchi yarmiga kelib, islomdan oldingi tarixiy meros ba'zi jihatlari ham tarixchilar ijodidan o'rin ola boshlagan. Masalani o'rganishda xolislik, tarixiylik va vorislik kabi tamoyillarga amal qilgan holda IX – X asrlarda yaratilgan tarixni yoritgan ishlar tadqiq etishga e'tibor qaratiladi.

Tahlil va natijalar. Somoniylar sulolasi davrida (819 – 999 yillar) Turonda tarix ilmi rivoji boshqa musulmon hududlari, xususan o'sha davr Arab xalifaligi markazi Bag'doddan katta farq qilmagan. Ya'ni yozilgan asarlar mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ular ko'proq islom olamida katta o'ringa ega bo'lgan shaxslar tarixi, umum musulmon tarixi, hududlar tarixi, turli sohalar olimlari tarjimai hollarini yoritgan turkum asarlarga tasniflashimiz mumkin. Shuningdek, arab tilidagi asarlar fors tiliga, yoki aksincha eski fors, pahlaviy tillarida yozilgan asarlar arab tiliga tarjima qilina boshlagan.

Birinchi turkum, ya'ni islom olamida katta o'ringa ega bo'lgan shaxslar tarixi to'g'risidagi asarlarga to'xtaladigan bo'lsak, ularning katta qismi Muhammad alayhissalom (570 – 632-yillar), sahobalar va boshqa shu kabi shaxslar faoliyatiga bag'ishlangan. Birinchi navbatda bunday ishlar qatoriga imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning (810 – 870-yillar) “Asmo as-sahoba” (Sahobalar ismlari) asarini kiritish mumkin. Biroq bu asar bugunga qadar saqlanib qolmagan. Hofiz Abul Hasan Ali ibn Umar Dorqutniyning (918/919 – 995-yillar) asarida bu haqida fikrlar aytilgan [1]. Imom Buxoriy somoniylar sulolasi hukmi ostidagi erlarda muqim yashamagan, u umrining katta qismini sayohatlarda o'tkazgan. Ammo shunday bo'lsa-da bu hududlarga ko'plab safarlar qilgan, oxir oqibat Samarqandda vafot etgan. Shuningdek, uning ilmiy asarlari va ilmiy merosi ilm ahli, hukmdorlar va oddiy aholida katta qiziqish uyg'otgan.

Mazkur turkumga oid yana boshqa asarlardan somoniylar sulolasi hukmi ostida bo'lgan Nishopurda yashagan va katta ta'sirga ega imomlardan bo'lgan Abul Abbas Muhammad ibn Abdurrahmon Dag'uliyning (937-yilda o'lgan) “Fazoil as-sahoba”, hamda kelib chiqishi arablarning tamim qabilasidan bo'lgan va Samarqandda vafot etgan Muhammad ibn Ayyoshiy Samarqandiyning (932-yilda o'lgan) “Siyrat Abu Bakr” (Abu Bakr biografiyasi), “Siyrat Umar” (Umar biografiyasi), “Siyrat Usmon” (Usmon biografiyasi), “Siyrat Muoviya” (Muoviya biografiyasi) kabi asarlarini ko'rsatish mumkin [9]. Bunday yo'nalishdagi ishlar somoniylar sulolasi hukmronligining oxirgi yillarida yashagan mualliflar tomonidan ham yozishga kirishilgan va boshqa sulolalar davrida nihoyasiga etkazilgan. Ulardan Nasaf shahrining imom xatibi bo'lib faoliyat ko'rsatgan Ja'far ibn Muhammad Mustag'firy Nasafiyning (961 – 1041-yillar) “Ma'rifat as-sahoba” (Sahobalarni tanish) asarini ko'rsatish mumkin [9].

Yuqorida nomlari ko'rsatilgan asarlar bugunga qadar etib kelmagan, ammo etib kelgan boshqa manbalarda ular to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur asarlarning yozilishiga birinchi navbatda insonlarning islom tarixi bilan qiziqishlari, islomning paydo bo'lishi, mazkur din tarqatgan eng asosiy g'oyasi bo'lmish yakkaxudolik, yana yakkaxudolik g'oyasi orqali birdamlik va bunyodkorlik ruhini odamlarga taqdim etish intilishi, qolaversa, islom dinining juda murakkab jarayonlarda tarqalgani, bunda

birinchi navbatda Muhammad payg‘ambar, keyin uning izdoshlari sahobalar, hamda boshqa shaxslar hayotlari va faoliyatlari bilan bog‘liq voqealarni bilishga insonlarning qiziqishlari sabab bo‘lgan. Mazkur tarixiy jarayonlarni yoritishda bu masalada turkiy xalqlarning o‘rni va hissasiga ham kerakli joylarda o‘rin ajratilgan.

Yuqoridagi asarlar bugunga qadar etib kelmagan bo‘lsa-da, IX asrda Bag‘dodda faoliyat ko‘rsatgan adib va faqih Abu Usmon Amr ibn Bahr Johiz (775 – 868-yillar) “Manoqib al-atrok” asarida kufalik arablarning toiy qabilasidan bo‘lgan tarixchi Haysam ibn Adiyga (732 – 822-yillar) suyangan holda shunday ma‘lumotni bergan: “Haysam ibn Adiy aytishicha, Muborak Turkiyga uning yonida Hammod Turkiy [bu ikki qo‘mondon xalifa Abu Ja‘far Mansur davrida (754 – 775-yillar) Bag‘dodda faoliyat ko‘rsatgan turkiylardan bo‘lgan] ham bo‘lgan paytda ulardan Sizlar mazhijlardanmisiz deb so‘radilar. Shunda u kim u mazhijlar, Biz Ibrohim Xalilulloh va mo‘minlar amiridan boshqasini tanimaymiz” [13]. Bu davrda arablarning mazhij qabilasidan bir vakil Turklar diyoriga kelgan, o‘sha erda qolib ketgan va turklar ulardan tarqalgan degan ma‘lumotlar keng tarqalgan. Mazhijlar yamanlik arab qabilasi bo‘lgan. Yuqoridagi javobdan turklar mazhijlarga aloqador ekanliklarini tan olmasliklari va o‘zlarini islomdan oldingi qadimgi davrlardan “ahli kitob” bo‘lganliklari va o‘sha voqea sodir bo‘lgan vaqtda esa allaqachon musulmon ekanliklarini nazarda tutganliklarini xulosa qilish mumkin. Johizning shu misoli orqali IX asrda turklarning diniy tasavvurlari haqida tushuncha hosil qilish mumkin.

Ikkinchi turkumni umumiy tarix yo‘nalishidagi ishlar tashkil etadi. Ularning ichida Dovud ibn Muhammad ibn Muso Avdaniy Buxoriyning (932 yilda o‘lgan) “Ahsan az-zamon” (Davrnig eng yaxshi voqealari) asari [9], Mutahhar ibn Tohir Maqdisiyning (965 yili o‘lgan) somoniy vazirlaridan biriga taqdim etgan “Al-bad’ va-t-tarix” (Ibtido va tarix) kabi asarlarni ajratib ko‘rsatish mumkin [4].

Maqdisiyning “Al-bad’ va-t-tarix” asari bugunga qadar ma‘lum bir qisqartirishlar bilan etib kelgan. Afsuski, Mutahharning hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risida ma‘lumotlar saqlanib qolmagan. U somoniylar sulolasiga qarashli Eron hududidagi Bust shahrida yashagan. Maqdisiy asarining beshinchi jildida Turonning arablar tomonidan bosib olinishi to‘g‘risida qisqa ma‘lumotlar berilgan. Oltinchi jildida esa abbosiylar sulolasi (750 – 1258-yillar) qo‘shini tarkibidagi turkiy qo‘mondonlar va Turon viloyatlari to‘g‘risida qisqa xabarlar keltirilgan [4]. Asarning ahamiyatli jihati unda tarixiy voqealarni falsafiy mushohada qilishga urinilgan.

Yana shunday ishlar qatoriga Abu Zayd Ahmad ibn Sahl Balxiyning (850 – 934-yillar) “Fazilat ilm tarix” (Tarix ilmi fazilati) asarini ko‘rsatish mumkin [9]. Bu asar saqlanib qolmagan, ammo unda asosan tarix fanining falsafasi haqida fikrlarni ilgari surilgan.

Yana umumiy tarix yo‘nalishida Muhammad Tabariy tomonidan yozilgan “Payg‘ambarlar va podsholar tarixi” asari somoniy hukmdor Mansur ibn Nuh (961 – 976-yillar) topshirig‘i asosida uning vaziri Abu Ali Bal‘amiy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan [3].

Abu Abdulloh ibn Ahmad ibn Ja‘far Farg‘oniy (973 yilda o‘lgan) ham Tabariyning asariga qo‘shimchalar kiritgan [9]. Biroq, bu tarjima bugunga qadar etib kelmagan.

Somoniylar davri yaratilgan asarlar sodda-oddiy va tushunarli ekanligi, ritorik qochirimlari kamligi bilan ajralib turadi.

Hududlar tarixiga bag‘ishlangan asarlarni esa ikkiga bo‘lish mumkin. Ularning birinchisi hududlar tarixini aks ettirsa, ikkinchisida ma‘lum bir hududdan etishib chiqqan turli sohalarda faoliyat ko‘rsatgan olimlar ro‘yxati keltirilgan. Birinchi guruh ishlar ichida mashhur Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiyning (899 – 959-yillar) “Buxoro tarixi” asari ajralib turadi [8]. Yana bu guruhga Abul Abbas Ja‘far ibn Muhammad ibn Mu‘taz Mustag‘firiynig (961 – 1041-yillar) “Nasaf tarixi”, “Kesh tarixi” kabi asarlarni kiritish mumkin [10].

Muhammad Narshaxiyning asaridagi ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali ma‘lum bir hududlarga bag‘ishlangan ishlarda hududning islomdan oldingi tarixi va madaniyatiga xos jihatlar ham nisbatan kengroq yoritilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchi guruhdagi ishlarga Abul Horis Asad ibn Hamduya Varsiniyning (927-yilda o‘lgan) “Mafoxir ahl Kas va Nasaf” (Kesh va Nasaf ahli faxrlanadigan narsalar), Abu Zayd Balxiyning (932-yilda o‘lgan) “Fazoil al-Balx” (Balxning oliy jihatlari) asarlarida hududlarda etishib chiqqan olimlar, joylarning muqaddas jihatlari va boshqa masalalar yoritilgan [9]. Afsuski yuqoridagi asarlar bugunga qadar etib kelmagan, shu sababli ularning mazmuni haqida chuqur tasavvurlarga ega emasmiz.

Turli soha olimlari tarjimai hollariga bag‘ishlangan asarlar bu davrda yozilgan va tarixiy asarlar

qatoridan joy olgan. Ularni ma'lum bir yo'nalishlar masalan muhaddis olimlar, faqihlar olimlar ro'yxati, ma'lum bir hududdan etishib chiqqan barcha sohalarida faoliyat ko'rsatgan olimlar ro'yxati, hamda alohida olimlarning hayot faoliyati va fazilatlarini madh etilgan manoqib asarlarni ko'rsatish mumkin.

Imom Buxoriyning "At-tarix al-kabir" va boshqa asarlarida asosan muhaddislik faoliyati bilan shug'ullangan shaxslar biografiyasi keltirilgan. Tojiddin Subkiy (1327 – 1370-yillar) ismli o'rta asr muallifi "Kitob at-Tarix al-kabir"ga ijobiy baho bergan va uni tengi yo'q asar deb atagan. Bugungi kunda Buxoriyning boshqa asarlari chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, "Kitob at-tarix al-kabir" deyarli o'rganilmagan [11]. Abu Ja'far Muhammad ibn Abu Hotam Buxoriy Nahviy Varroqning "Shamoil al-Buxoriy" asarida esa Imom Muhammad Buxoriyning hayoti va faoliyati yoritilgan [12].

Jumladan, Imom Buxoriyning "At-tarix al-kabir" asarida Muhammad ibn Salim Xurosoniy Balxiy, Iso ibn Ubayd Marvaziy kabi muhaddis olimlar, yana ayrim davlat arboblari, mansabdorlar va shaharlar diniy-ma'rifiy muassasalari to'g'risida ham juda qisqa ma'lumotlar keltirilgan [11].

Yana Abu Ja'far Buxoriy Varroqning asari orqali esa biz imom Muhammad Buxoriy hayotiga oid u yashagan davrga nisbatan eng yaqin, hamda muallif Buxoriyning shogirdi bo'lganligi, doimo uning yonida bo'lganligidan kelib chiqib, eng to'g'ri va haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Asarda ayniqsa Buxoriy hayotining oxirgi damlari, u dafn etilgan qishloq, odamlarning uning qabriga ziyoratga kelganligi, qabr joylashgan mazilning ziyoratgohga aylanishi, qabrni qo'riqlash bo'yicha imkoniyat cheklanganligi, bu masala qabrni yogochlar bilan o'rab qo'yish orqali hal etilganligi haqida juda qiziq va muhim qaydlar keltirilgan. Yana bu asarda o'sha vaqtda Samarqandda to'rt yuz kishi hadis ilmini o'rganganligi, asarlar matnini ko'chirish bilan shug'ullanadigan kotiblar faoliyati, ko'plab olimlarning ismi va faoliyat ko'rsatgan erlari haqida ma'lumotlar berilgan [12].

Xulosa va takliflar. Somoniylar sulolasi vakillaridan davlat ta'sirini kuchaytirgan amirlar, Ismoil ibn Ahmad (892 – 907-yillar), Nasr ibn Ahmad (914 – 943-yillar), Mansur ibn Nuh (961 – 976-yillar) va undan keyingi yillarda nisbatan kuchliroq rivojlanganligi ko'zga tashlanadi. Bunda sulolaning yuqoridagi vakillari o'z saroylarida yaxshi ilmiy muhit yarata olganlar. Bu esa bir qator durdona asarlarning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan. Shuningdek, hududning arablar bosqinidan oldin ham boy tarixga ega ekanligi, ilm-fan rivojlanganligini ko'rsatuvchi jihatlar ham tarixiy asarlarda tobora o'rin olib borgan.

ADABIYOTLAR

Hofiz Abul Hasan Dorqutniy. As-sahoba allatyi ittafaqa alayho al-Buxoriy va muslim. Jobir Abdulloh as-Surayyi' nashrga tayyorlagan. Ar-Riyod, 2012. 3-10-betlar.

Ibn an-Nadim. Fihrist. Bayrut. Dor al-ma'rifa. 1970.

Kotib Chalabiy yoki Hoji Xalifa ismi bilan mashhur Mustafo ibn Abdulloh Qustantiniy. 1-jild. London, 2000. 298-bet.

Mutahhar al-Maqdisiy. Al-bad' va-t-tarix. 5-6-jildlar. Parij, 1916 – 1919.

Robinson Ch. F. Islamic Historiography. Cambridge University Press, 2003. P. XVI.

Rosenthal F. A history of Muslim historiography. 2nd revised edition. Leiden: E.J. Brill, 1958. – 656 p.

Камолиддин Ш. Саманиды. LAP LAMBERT Academic Publishing. 2012. С. 267-316.

Мухаммад ан-Наршахи. Тарих-и Бухара. История Бухары / Перевод, комментарии и примечания Ш.С. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г.Некрасовой. Ташкент: SMIA-SIA. 2011.

Ножий. М. Фарҳанг ва тамаддуни исломий дар қаламрави сомониён. Баргардон доктор Л.Бойматов. Душанбе, 2011. 1096-1100-бетлар.

Shamsiddin Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. 17-jild. Bayrut, 1996. 564-565-betlar.

Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Kitob at-tarix al-kabir. Haydarobod: Usmoniyya nashriyoti, 1941-1959.

Abu Ja'far Muhammad ibn Abu Hotam Buxoriy Nahviy Varroq. Shamoil al-Buxoriy. 2019. 11-17-betlar.

Abu Usmon Amr ibn Bahr Johiz. Rasoil al-Johiz. 1-jild. Al-Qohira, 1964. 75-bet.